

“Yandex Pro”ga ulangan haydovchilar va kuryerlar uchun Prepaid tizimidagi “Yo‘ldosh” tarif rejasining shartlari

Tarif rejasining nomi	“Yo‘ldosh”
Oylik abonent to‘lovi	52 000
Oylik internet-trafik limiti	50 GB
5G	50 GB
Cheksiz trafik	• Xaritalar (Yandex Maps, Yandex Navigator) • Go Services
Obunalar	Yandex Plus Ucell TV Bazaviy (Free sig)
O‘zbekiston bo‘ylab chiquvchi qo‘ng‘iroqlarning oylik limiti	Unlim*
O‘zbekiston bo‘ylab chiquvchi SMSlarning oylik limiti	2000
Limitlarni tekshirish	*100# – daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari

Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash	
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so‘m
1 MB internet narxi	25 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	25 so‘m
Xalqaro SMSlar	1 500 so‘m

*texnik cheklanma – 45000 daqiqa

Qo‘shimcha ma’lumot

- Tarif rejasi yangi ulanishlar va o‘tishlar (MNP) uchun Prepaid tizimida “Yandex Pro” ilovasidagi Deeplink orqali amal qiladi. Ya’ni, “Yandex Pro” ilovasidagi Ucell mobil ilovasiga yo‘naltiruvchi tugmacha/havola orqali va keyin barcha shartlar hamda ma’lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, biznes segmentiga xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash ofislarida “Yandex Pro” ilovasidagi Deeplink taqdim etilganida ham.

Oylik abonent to‘lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish sanasi oylik davrda oylik abonent to‘lovining yechilish sanasi hisoblanadi.
- Tarif rejasiga yangi ulanishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag‘ bo‘lsa, oylik abonent to‘lovi va limitlar to‘liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
- Hisob manfiy holatda bo‘lsa yoki unda tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovining yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
- Oylik abonent to‘lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovining so‘nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to‘lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo‘lgan davrda (yechilish vaqti qat’iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lishi kerak.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanaga belgilangan bo'lsa, keyingi oy esa 30/29/28 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, yoki fevral oyining 28/29-sanasi yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda tursa), abonent to'lovining navbatdagi yechilishi 31-sanada bo'ladi).

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmaganicha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi darhol yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab bir oylik oraliqda amalga oshadi.

5G tarmog'idagi oylik internet-trafikning taqdim etilish shartlari

- Tarif rejasi doirasida berilgan 5G internet-trafik hajmi 5G tarmog'ida amal qiladi va sarflanadi;
- 5G hajmi to'liq sarflab tugatilsa, 5G tarmog'idagi internet tarif rejasining amaldagi shartlariga muvofiq narxlanadi;
- Internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi;
- Qo'shimcha 5G internet-trafik hajmi taqdim etilishi munosabati bilan, "5G" xizmati "Yo'ldosh" tarifida avtomatik tarzda taqdim qilinadi.
- 5G internet-trafik hajmi raqam Bloklangan holatda amal qilmaydi;
- Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning ulanish nuqtasi orqali internetni tarqatishda, faqat internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina, berilgan 5G internet hajmidan foydalanish mumkin bo'ladi.
- Proksi-serverlar yoki VPN orqali ulanishda, internet-trafik berilgan 5G hajmi doirasida sarflanmaydi.

"Ucell TV" uchun cheksiz internet-trafik shartlari

- "Yo'ldosh" tarif rejasiga ulanishda va o'tishda (MNP), standart holatga ko'ra "Ucell TV" xizmati doirasida quyidagi obunalardan foydalanish imkoni taqdim etiladi:

Tarif rejasi	Tarif rejasi ushbu obunani o'z ichiga oladi
Yo'ldosh	"Ucell TV" – UzMTRK kanallarini (O'zbekiston davlat telekanallarini) cheksiz tomosha qilish imkoni

- Agar tarif bo'yicha abonent to'lovi yechilmagan bo'lsa, u holda "Ucell TV" xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni cheklanadi
- "Ucell TV" xizmati faqat O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi.
- "Ucell TV" xizmati Ucell uyali aloqa tarmog'i interneti orqali ham, istalgan boshqa operator yoki internet-provayder tarmog'ida ham, shuningdek istalgan Wi-Fi tarmog'i orqali ham ishlaydi. Boshqa operator yoki internet-provayderning internet-trafigi uchun to'lov ularning shartlariga muvofiq hisoblanadi.
- "Ucell TV" xizmatidan proksi-server, VPN yoki uchinchi sayt orqali foydalanishda, trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plam balansidan sarflanadi.
- Xizmat doirasidagi TV-kanallarni onlayn tomosha qilish uchun internet tarmog'iga ulanish kerak bo'ladi.
- Standart holatga ko'ra "Ucell TV" xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni taqdim etilishi munosabati bilan, "Yo'ldosh" tarifida TV-kanallarni ko'rish imkonini beruvchi pullik obunalarni alohida xarid qilish cheklangan

"Yandex Plus" uchun cheksiz internet-trafik shartlari

Bu – "Yandex Music", "Kinopoisk", "Yandex Books"ga yagona obuna, shuningdek "Yandex Plus Cashback" sodiqlik dasturi doirasida ballar shaklida keshbek.

“Yandex Plus” obunasini rasmiylashtirish:

Obunaning barcha afzalliklaridan foydalanish uchun “Yandex Plus”ni faollashtiring. Buning uchun:

- <https://plus.yandex.uz/ucell> havolasi orqali o‘ting;
- Telefon raqamini kiriting;
- “Yandex ID” bilan avtorizatsiyadan o‘ting.

Shundan keyin darhol siz “Yandex Plus” obunasi doirasida “Yandex Music”, “Yandex Books”dan foydalanish, shuningdek “Yandex” servislarida “Plus” ballari shaklida keshbek olish imkoniga ega bo‘lasiz.

Shartlar

- “Yandex Plus” obunasi doirasida “Yandex Music”, “Kinopoisk”, “Yandex Books” xizmatlaridan foydalanish, shuningdek “Yandex” servislarida “Plus” ballari shaklida keshbek olish imkonini “Yo‘ldosh” tarif rejasida, tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovi samarali yechilganida taqdim etiladi.
- “Yandex Plus” tarkibiga kiruvchi “Yandex Music”, “Kinopoisk”, “Yandex Books” xizmatlarida avtorizatsiyadan o‘tishda “Yo‘ldosh” tarif rejasidagi abonent raqamiga bog‘langan “Yandex ID”dan foydalanish lozim. Rasmiylashtirilgan obuna albatta plus.yandex.uz/ucell sahifasida faollashtirilgan bo‘lishi kerak.
- Tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovi samarali yechilgan taqdirda, obuna belgilangan vaqtdan boshlab 30 kunlik amal qilish muddati bilan tayinlanadi. Agar shaxsiy hisobda abonent to‘lovini to‘lash uchun yetarli mablag‘ bo‘lmasa, xizmatlar obunasi avtomatik tarzda to‘lovni kutish holatiga o‘tadi va abonent hisobida uning haqini to‘lashga yetarli mablag‘ bo‘lishi bilan avtomatik ravishda navbatdagi 30 kunga uzaytiriladi. Bunda oylik abonent to‘lovi samarali yechilganida, obunaning amal qilish muddati uning so‘nggi belgilangan vaqtdan o‘rnatiladi.
- “Yo‘ldosh” tarif rejasi doirasida, “Yandex Go”, “Yandex Music”, “Yandex Books” va “Kinopoisk” ilovalaridan foydalanganda internet-trafik tarifdagi amaldagi internet-to‘plamlardan sarflanmaydi.
- “Yandex Go”, “Yandex Music”, “Yandex Books” va “Kinopoisk” ilovalaridan roumingda foydalanganda, internet-trafik roumingda hududiy narxlash shartlariga muvofiq narxlanadi.
- “Yandex Plus” tarkibiga kiruvchi xizmatlardan proksi-server, VPN yoki uchinchi sayt orqali foydalanganda, trafik tarif rejasi shartlariga ko‘ra Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to‘plam balansidan yechiladi.
- Internet-trafik sarfining oldini olish uchun, xizmat faollashganidan keyin mobil ma’lumotlar almashinuvini o‘chirib, internet-sessiyani to‘xtatish, keyin uni qayta faollashtirish lozim.
- Abonentda “Yandex Plus” xizmatining bir nechta faol obunasi mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, abonent avval haqi abonentning bank kartasi orqali to‘lanadigan obunani faollashtirgan. Bunday holatda, haqi boshqa usullar bilan to‘lanadigan obuna “Yandex Plus” xizmatining saytida, https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/ havolasi bo‘yicha berilgan “Yandex Plus” obunasi shartlariga muvofiq boshqariladi.
- Boshqa tarif rejasiga (“Maqsad” TT) o‘tilganida, “Yandex Plus” xizmati taqdim etilishining barcha shartlaridan toki o‘chirilgan obunaning amal qilish muddati tugashi vaqtigacha foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda “Yandex Go”, “Yandex Music”, “Yandex Books” va “Kinopoisk” ilovalaridan foydalanganda abonentning tarif rejasiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to‘plam balansidan yechiladi.
- “Yo‘ldosh” tarif rejasida “Restart” xizmatidan foydalanishda, “Yandex Plus” doirasiga kiruvchi xizmatlardan foydalanish imkonini bekor qilinadi va tarif rejasiga muvofiq yangi foydalanish imkonlari taqdim etiladi.
- “Yo‘ldosh” tarif rejasida alohida “Yandex Plus” (“Pullik obuna” va “90 kunga bepul obuna”) xizmatiga ulanish imkonini yo‘q.
- “Yandex Plus” obunasi doirasida “Kinopoisk” xizmatida katalogdagi kontentning barchasidan foydalanish imkonini mavjud emas.
- Obuna foydalanuvchilari uchun “Yandex Books” xizmatidan foydalanish imkonini aksiya qoidalariga (https://yandex.ru/legal/plus_x_books/ru/) muvofiq taqdim etiladi.
- “Yandex Go”: obuna doirasida foydalanuvchilarga, “Yandex Go ilovasi orqali qilingan safarlar uchun ballar” aksiyasi qoidalariga (https://yandex.ru/legal/uz_ball_go/) muvofiq, ilova yordamida buyurtma qilingan safarlar uchun ballar shaklida keshbek taqdim etiladi.
- “Yo‘ldosh” tarif rejasini rasmiylashtirib, foydalanuvchi “Yandex Plus” obunasidan foydalanish Shartlariga roziligini tasdiqlaydi. “Yandex Plus” obunasining batafsil shartlari: (https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/) va “Yandex Plus Cashback” sodiqlik dasturining batafsil shartlari: (https://yandex.ru/legal/plus_loyalty/ru/).
- Raqamni qayta rasmiylashtirganda, albatta plus.yandex.uz/ucell sahifasida “Yandex Plus” obunasi faollashtirilgan bo‘lishi kerak.
- Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-

hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda internet-trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to'plam balansidan yechiladi.

• "Yandex Plus" tarkibiga kiruvchi xizmatlar doirasida taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafik shartlari smartfon yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi (Hotspot) orqali internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi.

Bloklanish shartlari

- JONLI NOL: endi hattoki nol hisob holatida ham Siz barcha aloqa xizmatlaridan foydalana olasiz!***

- raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi.

- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi.

Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan "Oylik internet-to'plamlar" limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa).

Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari keyingi davrga o'tkazib berilmaydi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini Ucell ilovasi yoki *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi bo'yicha barcha yo'nalishlar uchun berilgan oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolali SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash ("Restart" xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish****
- Tarif rejasini almashtirish

**** Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish" opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor beramiz:

- Tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida, tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida albatta oldindan tekshirib olishni tavsiya etamiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganiga qadar narxlash tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

- Tarif rejalari shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

- Tarif rejalari doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi (rouming uchun berilgan trafikdan tashqari).

- "Yo'ldosh" tarif rejasi abonentlari uchun "Raqamni saqlab qolish", Yangi Oylik internet-to'plamlar, "TAS-IX uchun internet-to'plamlar", "Al Chiroq" aksiyasi (faqat MB va SMS to'plamlari), "Trafik+" xizmatlari amal qiladi.

- "Yo'ldosh" tarif rejasi abonentlari uchun "Qulay daqiqalar", "Tarmoq ichida qulay" hamda "O'zbekiston bo'yicha qulay" to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, "Kunlik SMS-to'plamlar", "Oylik 4G internet-to'plamlar" (shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi shu to'plamlar), "Tungi internet", "Tungi internet-to'plamlar", "Tunda 4Gni sinab ko'ring", "Internet Mega BOOM", "Buyurtma to'plam", "Soatbay internet"

to'plamlari va "Maksimal internet", "Megabaytlar qaytadi" xizmatlari, "Qadrdonlar" hamda "U+" sodiqlik dasturlari amal qilmaydi.

- "Yo'ldosh" tarif rejasiga ulanishda va o'tishda (MNP), "Sizga qo'ng'iroq qilishdi" xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi.

- Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi va 4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz

"Restart" xizmatining shartlari

1. "Restart" xizmati mobil ilova yoki *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
2. "Restart" xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
3. "Restart" xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasini shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. "Restart" xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
4. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasini oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
6. "Restart" xizmati samarali faollashganida, tarif rejasini doirasida oldin belgilangan limitlar (SMS, MB) qoldiqlari bekor qilinadi.
7. Tarif rejasini bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. "Restart" xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

Eslatma:

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.